

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISH METODLARI

Hamrayev Ilg'or Aktamovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Stajyor o'qituvchisi.

Do'smurodova Sevinch Temurovna

G'afurova Rayhona Shirinboy qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 – bosqich 103 – guruhi talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15401579>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun qo'llanadigan metodlar haqida tushuncha beriladi. Boshlang'ich sinflar dars jarayonida qo'llanilgan har bir metod ta'lim metodi hisoblanadi. Ta'lim metodi birgina usul bilan chegaralanib qoladigan metod emas. Unda o'quvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib yetkazish bosh maqsadimiz deb qaraladi.

Kalit so'zlar: Metod, ta'lim metodi, klaster metodi, qiziqtirish metodi, ta'lim, tarbiya.

Abstract. This article provides an understanding of the methods used for primary school students. Each method used in the primary school classroom is considered an educational method. An educational method is not a method that is limited to one method. In it, our main goal is to make students well-rounded and well-rounded.

Keywords: Method, educational method, cluster method, method of interest, education, upbringing.

Аннотация. В данной статье дается представление о методах, используемых для учащихся начальной школы. Каждый метод, используемый в начальной школе, считается образовательным методом. Метод обучения не ограничивается одним методом. Наша главная цель — воспитать студентов всесторонне развитыми и разносторонними во всех отношениях.

Ключевые слова: Метод, образовательный метод, кластерный метод, метод интереса, образование, воспитание.

Kirish.

Bizga ma'lumki dars davomida berilgan bilimlarni klassi kunda ham eslay olishi o'qituvchining qo'llagan metodiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda dars jarayonida qo'llanilgan har bir metod ta'lim metodi hisoblanadi. Avvalo biz ta'lim metodiga tushuncha berib o'tsak. Metod-yunoncha atama bo'lib, voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish va o'rganish kabi va shu bilan birgalikda bilish uchun yo'l-yo'riqlar usullar degan ma'noni anglatadi. Shunday ekan o'qituvchi tanlagan metod samarasiz qolmasligi kerak, o'qituvchi va o'quvchi uchun eng katta yutuq shu hisoblanadi. Zamon talabiga javob beradigan o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ta'lim beruvchining o'zaro bog'liq faoliyat turi-ta'lim metodi hisoblanadi. Ta'lim metodi orqali o'quvchida aqliy qobiliyat va qiziqishlari xususiyatlarini namoyon qiladi.

Bu usulni maktab amaliyotida qo'llanganida tarbiyalanuvchi ya'ni o'quvchining ongi irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etuvchi usul hisoblanadi. O'qituvchilar dars jarayonida o'qitish, o'rgatish qisqacha qilib aytganda bilim berish bilan birgalikda o'quvchining tarbiyasi bilan shug'ullanish o'qituvchining burchi hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim degan so'zini ishlatganda, ta'limning tarbiya so'zi bilan bir-biriga uzviy bog'liqligini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Boshlang'ich tarbiyaning 60%i bolaning go'daklik davridan boshlab oila tomonidan beriladi. Tarbiyaga oiladan keyingi o'rinda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tomonidan pedagogik metodlarga tayangan holda chora-tadbirlar ko'rilishi lozim deb topiladi. Bu bolalar davr psixologiyasiga asoslangan holda o'qituvchi ota-onalar bilan uzviy aloqada bo'lishi ta'lim metodining samarali usuli hisoblanadi. Ta'lim metodi asosan har qanday muammoni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab ularni uch guruhga ajratish mumkin:

So'z orqali ifodalanadigan (maruza) metodi

Ko'rgazmali metod

Amaliy metod

Bulardan biri so'z orqali ifodalanadigan metod hisoblanadi. Ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi tomonidan hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa metodlarni qamrab olgan holatda eshitish orqali qabul qilinadi. Bu metod o'quvchilarda qabul qilish, anglash va amalda qo'llash faoliyatini yuzaga chiqarish uchun katta yordam beradi. Bunda mavzuning asosini tushuntirishda va anglashda hikoya usulidan foydalaniladi. Bu metod orqali o'quvchining diqqatining jamlanishiga va rivojlanishiga keng imkoniyat yaratib beradi. Bu bilan birgalikda voqealar rivojini xayolda tasavvur qilish natijasida o'sha hikoya va maruzaning ma'no mazmuniga sho'ng'ib ketishi uni tushinib va anglab yetishi uchun xizmat qiladi.

1-4 sinfdagi o'quvchilar asosan rangli va tushunib yetishi qiyin bo'lmagan rasm va videorolik tomosha qilishni yoqtirishadi. Hozirgi kunda matematika faniga oid ma'lumotlar ham rasm orqali ifodalanmoqda. Shu jumladan boshqa fanlarda ham rasm asosida matn tuzish va xulosa qilish degan shartlar ham qo'yilmoqda. Rasmlar bilan ishlash o'quvchining dunyoqarashini kengaytirishda yordam beradi. Shunday ekan o'quvchini darsga qiziqtirish usuli va doim qo'llanilib keladigan usul bu ko'rgazmali metod hisoblanadi. Ko'rgazmali metod orqali o'quvchining qiziqishini uyg'otish va o'quvchining psixologiyasi ya'ni qanday rangni yaxshi ko'rishini, nimaga qiziqishini yoki salbiy tomonlama qaraganda nimaga bo'lgan ishtiyoqi sust va darsga bo'lgan munosabati yomon bo'lgan holatlarni imkon qadar aniqlash uchun samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitish metodlaridan biri suhbat metodi hisoblanadi. Biz suhbat metodi orqali o'quvchida qanday jarayon kechayotganini va psixologik jihatdan mukammal o'rganishimiz mumkin. Bolaning dars jarayonida qiziqishi, o'zi haqida xulosa qila olmasligi va o'z fikriga ega bo'lmazligi xususiyatlari asosan yosh davr psixologiyasining bolalikning ikkinchi davriga to'g'ri keladi, ya'ni ta'lim oluvchini ruhan cho'ktirib qo'yishimiz kelajak uchun xavf. Bunday holatda o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lishi o'quvchini o'rganish uchun imkoniyat bo'ladi. Bu davrda o'quvchining 70% fikri atrofdagi shaxslarga bog'liq bo'ladi.

Bu davr psixologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchining oxirini o'ylab ish qilish, kelajagi uchun qayg'urish, o'z fikriga ega bo'lish va boshqa hissiyoti rivojlanmagan bo'ladi. Bunday holatda o'qituvchi albatta o'quvchini tinglashi, uning fikri qandayligini bilishi va psixikasiga asosan yo'l-yo'riq ko'rsatishi o'qituvchi uchun katta mas'uliyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchining qalbiga shunday kirib borishi kerakki ota-onasi bilmaydigan odati va qiziqishlarini bilishi o'qituvchining asosiy metodi hisoblanadi. Shu bilan birga bolaning uydagi va maktabdagi qat'iy harakatlarini taqqoslab turishi, biror bir ziddiyat paydo bo'lishining oldini olish o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida hal etilishi samarali yo'ldir. Har qanday holatda o'quvchi ruhiy zarba yemasligi bizning muvaffaqiyatimiz hisoblanadi.

Endi esa boshlang'ch sinflarning dars metodlaridan biri klaster metod haqida tushuncha berib o'tsam. Bu metod aniq bir mavzuga yo'naltirilmagan metod hisoblanadi. Bu metod erkin va mustaqil tanlangan mavzuga dars o'tish usulini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda ta'lim oluvchi o'z fikrini bayon etganda ta'lim beruvchining ham fikri bir joydan chiqishi samarali hisoblanadi.

Shu orqali ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining fikrlari o'rtasida bog'lanish hosil bo'ladi. O'quvchi fikrining xato emasligini anglagach uning aqliy faoliyatida rivojlanish paydo bo'ladi va o'quvchining darsga bo'lgan shtiyoqi so'nmaydi. Bu metod har qanday holatda ya'ni yakka va guruh shaklida tashkil etilgan mashg'ulot davomida keng foydalanish mumkin. Bu metod o'quvchining fikrlash doirasi kengayishiga yordam beradi va bir mavzuga yo'naltirilmagan bo'lganligi uchun ta'lim oluvchining fikrini bayon eta olish uchun keng imkoniyat yaratib beradi. O'z fikrini bayon eta olmaslik ruhan cho'kkanligi yoki ta'lim beruvchiga bo'lgan salbiy munosabati orqali yuzaga kelishi ehtimoli katta. Lekin tangananing ikkinchi tomoni bor deganlaridek klaster metod orqali qanchadan qancha yoshlar o'z hayoti, o'z maqsadi, o'z muvaffaqiyati yo'lini davom etmoqda. Shunday ekan o'z oldimizga maqsad qo'yib, intilishni davom etishdir. Tushuntirish metodi. Tushuntirishning bosh maqsadi-o'rganilayotgan predmetning mohiyatini, rivojlanish sabablarishartlarini va manbaalarini aniqlashdan iborat. Tushuntirish odatda tavsiflash bilan bog'liq desak adashmagan bo'lamiz. Tushuntirish bilan bir qatorda-tushunish ham kiradi.

Oldin tushunib so'ngra o'quvchilar ongida tasavvur uyg'ota olish ham pedagogik metod hisoblanadi. Shu holatda tushunish bilan tushuntirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ammo tushunishni o'rganilayotgan hodisani qonunga va sababga bog'lashni nazarda tutmaslikni unutmaslik kerak. Tushuntirish metodi boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarga yangi bilim va ko'nikmalarni og'zaki bayon qilish orqali tushuntirib berish usullaridan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Tushuntirish metodi orqali murakkab tushunchalar, hodisalar yoki jarayonlar oddiy va tushunarli tarzda izohlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali mustaqil tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish va chuqur fikrlash ko'nikmasiga to'liq ega bo'lmagan shaxs hisoblanadi. Shu sababli tushuntirish metodi ularning bilim olish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metod asosan darsda o'tiladigan yangi mavzu yoki tushunarli bo'lmagan mashq va masalalarni o'rgatishda qo'llaniladi.

Talim beruvchi mavzuni tushuntirayotganda hayotiy misollar, ko'rgazmali qurollar, rasmlar va texnologik kabi vositalardan foydalanadi. Tushuntirish metodining samarali bo'lishi uchun o'qituvchi sodda, aniq va ravon tilda gapirishi lozim.

Shuningdek o'quvchilarning e'tiborini jalb etish, ularning darsga bo'lgan qiziqishini orttirish va ularni darsda faol ishtirok ettirish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tushuntirish metodi boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirilgan holda dars samaradorligi oshadi. Masalan: tushuntirishdan so'ng savol-javob, suhbat, mashq bajarish kabi metodlar bilan mustahkamlash mumkin. Tushuntirish metodi boshlang'ich ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan va samarali metod hisoblanadi. 1-4 sinf o'quvchilari uchun mavzuni o'zlashtirishda tushunarli va sodda til orqali tushuntirish metodi orqali mavzuni aniq, lo'nda va qiziqarli tarzda tushuntirish katta ahamiyatga ega.

Bu metod ta'lim beruvchining bilimlarni og'zaki bayon qilish orqali o'quvchilarga yetkazishga yordam beradigan samarali usul hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarga tushuntirish jarayonida nutq madaniyatiga rioya qilishi, ifodali, ravon va o'quvchilarga tushunarli tilda so'zlashi lozim.

Qiziqtirish metodi. Qiziqtirish metodi-bu o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ichki qiziqish uyg'otish orqali ularni faol o'rganishga undaydiga o'qitish metodidir. Qiziqtirish metodining asosiy vazifalaridan biri "O'quvchining darsga bo'lgan motivatsiyasini oshirish" hisoblanadi. Qiziqtirish metodi faqatgina dars boshida emas, balki butun o'quv jarayonida qo'llaniladi. Qiziqtirish metodi asosan o'quvchilar uchun tasodifiy rag'batlar va shunga o'xshash jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday holatlarga o'xshagan tasodifiy voqealar yuz beradigan o'yinlar va raqslarni taqdim etish ham qiziqtirish metodidir.

Qiziqtirish metodiga yana bir misol ko'rib chiqsak. Dars jarayonida qandaydir ertak yoki hikoya aytib berishda ertakning o'rtalariga kelgan holatda davomini aytmalik ya'ni uni kelasi darsga qoldirish ham qiziqtirishga kiradi. So'ngra oxirining qanday tugaganligi bilan qiziqadi. Har xil tahlil qiladi, fikr yuritadi va bu aqliy rivojlanishga olib keladi.

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yosh avlod kelajakni qiziq, oson va yaqindek tasavvur qiladi. Yosh avlodni kelajakka bilimli, tarbiyali va yetuk qilib yetkazish esa bizning burchimiz hisoblanadi. Birinchi o'rinda oiladan tarbiya, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan ham ta'lim, ham tarbiya berish kelajak avlod uchun samaralidir.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari bergan bilim o'quvchilar uchun fundament hisoblanadi. Ta'lim deganda tarbiya so'zi ham teng ma'noda ishlatilishi haqiqat, albatta.

Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo, hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekanini bugun, har qachongidan ham yaxshi anglaymiz.

REFERENCES

1. Beloshistaya A.V. Boshlang'ich ta'limda o'qitish metodikasi. M.: Vldos.2016.456bet
<http://www.lexuz>
2. Vygotskiy L.S.Tafakkur va nutq.Sank-Peterburg.2019.432-bet

3. Visitova L.S. Boshlang'ich maktabda o'qitishning innovatsion usullari// Ta'lim va tarbiya. 2016-yil. 16-19-ber
4. Jumaboyev M. O'zbek va jahon adabiyoti-T.: 1996.